SIRDARYO VILOYATI YANGIYER SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 5 - aprel 70-9-132-Q/22 Yangiyer shahar hokimligi

Yangiyer shahar hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari, markaziy ko‘chalarida fuqarolar hamda transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2022-yil 11-fevral kuni “Xavfsizlik va ravon yo‘l tamoyili asosida yo‘llarda inson xavfsizligini ta’minlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlari ijrosini ta’minlash, Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2022-yil 2-fevraldagi 10/6-266-sonli xati, O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan, Yangiyer shahar hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini va Yangiyer shahar IIB boshlig'ining 2022 yil 14 fevraldagi 32/90-sonli xatlariga asosan, **qaror qilaman:**

1. Yangiyer shahar IIBning yo‘l-transport hodisalarini oldini olish, harakat xavfsizligini ta’minlash va tartibga solish maqsadida 2022 yil 14 fevraldagi “Yangiyer-Boyovut” avtomobil yo‘lining Yangiyer shahri hududidan o‘tuvchi 0 km.da, ya’ni “Xoliqnazar ota” choyxonasi ro‘parasida va 4R-32 “Yangiyer-Paxtakor”

avtomobil yo‘lining 0 km.lariga 3.27 (to‘xtash taqiqlangan) yo‘l belgisini hamda shahar hududidagi barcha ko‘chalar bo‘yida joylashgan maktablar oldiga 1.21 (bolalar) yo‘l belgilarini o‘rnatilishi to‘g‘risidagi 32/90-sonli xatlari inobatga olinsin.

2. Shahar hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. “Yangiyer-Boyovut” avtomobil yo‘lining Yangiyer shahri hududidan o‘tuvchi 0 km.da, ya’ni “Xoliqnazar ota” choyxonasi ro‘parasida va 4R-32 “Yangiyer-Paxtakor” avtomobil yo‘lining 0 km.lariga 3.27 (to‘xtash taqiqlangan) yo‘l belgisi yo‘nalishdagi bekatdan keyin o‘rnatilsin.

4. Yangiyer shahar hududidagi barcha maktablar joylashgan ko‘chalarga 1.21 (bolalar) yo‘l belgisi o‘rnatilib chiqilsin.

5. Shahar Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (Z.Sobirov) va Xovos tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori (Sh.Sherqulov)ga shahar hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

6. Shahar hokimligi matbuot kotibi (A.Abdullayev) mazkur qarorni shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Mirzayev hamda shahar IIB boshlig‘i Z.Sobirov zimmalariga yuklatilsin.

Yangiyer shahar hokimi **I.Xo'jayev**

Yangiyer shahar hokimining
2022 yil 5 apreldagi
70-9-132-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Shahar hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

R O‘ Y X A T I

№	Yo‘l belgisi o‘rnatiladilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1.	Shahar 4R-32 “Yangiyer-Paxtakor” (Paxtakor ko‘chasi) avtomobil yo‘lining 2+250 km (o‘ng yo‘nalish)	3.28 (To‘xtab turish taqiqlangan)
2.	Shahar 4R-32 “Yangiyer-Paxtakor” (Paxtakor ko‘chasi) avtomobil yo‘lining 2+300 km (chap yo‘nalish)	3.27 (To‘xtash taqiqlangan)